

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI DAVLAT
BOSHQARUVI AKADEMIYASI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.20/30.12.2019.S.23.02
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

TAGIYEVA GULSUM GAFUROVNA

**O‘ZBEKISTONDA IJTIMOY TA’MINOT TIZIMINI RIVOJLANTIRISH:
SOTSIOLOGIK TAHLIL**

22.00.02 – Ijtimoiy tuzilish, ijtimoiy institutlar va turmush tarzi

**SOTSIOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации

Contents of the abstract of the dissertation of the Doctor of Science (DSc)

Tagiyeva Gulsum Gafurovna

О‘zbekistonda ijtimoiy ta’minot tizimini rivojlantirish:

sotsiologik tahlil 3

Тагиева Гулсум Гафуровна

Развитие системы социального обеспечения в Узбекистане:

социологический анализ 29

Tagieva Gulsum Gafurovna

Development of social security system in Uzbekistan: sociological analysis 61

E’lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 65

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI DAVLAT
BOSHQARUVI AKADEMIYASI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.20/30.12.2019.S.23.02
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

TAGIYEVA GULSUM GAFUROVNA

**O‘ZBEKISTONDA IJTIMOY TA’MINOT TIZIMINI RIVOJLANTIRISH:
SOTSIOLOGIK TAHLIL**

22.00.02 – Ijtimoiy tuzilish, ijtimoiy institutlar va turmush tarzi

**SOTSIOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Sotsiologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.2.DSc/S20 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.fs-ik.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Sodiqova Shohida Marxabayevna
sotsiologiya fanlari doktori (DSc), professop

Rasmiy opponentlar:

Umarov Absalom Adilovich
sotsiologiya fanlari doktori, professori

Xuseynova Abera Amonovna
falsafa fanlari doktori, professori

Hayitov Xushvaqt Safarboyevich
yuridik fanlari doktori, professori

Yetakchi tashkilot:

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi huzuridagi DSc.20/30.12.2019.S.23.0 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «15» mart soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 45-uy. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi binosi, 10-qavat, 1002-xona. Tel.: (99871) 232-60-56, faks: (99871) 232-60-80, e-mail: nauka@nuu.uz.).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (357-raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 45-uy. Tel.: (99871) 232-61-25; faks: (99871) 239-17-83.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «3» mart kuni tarqatildi.

(2025 yil «1» martdagi №01/3-3 raqamli reyestr bayonnomasi).



M.B.Bekmurodov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash rasi, sotsiologiya fanlari doktori, professor

B.SH.Karimov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, sotsiologiya fanlari doktori (DSc), professor

T.B.Matibayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar rasi, sotsiologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (doktorlik (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo mamlakatlarida pensionerlar, nafaqaxoʻrlar, yakka-yolgʻizlar, kam taʼminlanganlar, ishsizlar, umuman ijtimoiy himoyaga muxtoj qatlamlar sonining oʻsib borishi bois ijtimoiy taʼminot masalasi dolzarb va umumbashariy vazifa sifatida kun tartibiga yangi vazifalarni qoʻymoqda. Maʼlumki, hozirgi vaqtda dunyo aholisining atigi 47 foizi ijtimoiy himoyaning kamida bitta turini oladi, 53 foizi (4,1 mln. kishi) esa ijtimoiy taʼminotdan maxrum hisoblanadi¹. Ijtimoiy taʼminot bir qator omillarning tizimli va determinatsiyalashtiruvchi taʼsiri ostida amalga oshirilib, mazkur murakkab sotsial jarayonda ijtimoiy-iqtisodiy va moliyaviy omillarning oʻrni dunyoning barcha davlatlarida birday ahamiyatlidir. Bu aholining ijtimoiy himoyaga va yordamga muhtoj toifalari: kam taʼminlanganlar, koʻp bolali oilalar, nogironlar, yolgʻiz qariyalar va boshqa qatlamlarini adolatli jamiyat hamisha himoya qilishni oʻz zimmasiga olib, bugungi kunda davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan ekanligi kuzatilmoqda.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarining ilmiy markazlari, universitetlarida ijtimoiy taʼminotni rivojlantirish yoʻnalishlarida tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada ijtimoiy taʼminot tizimini samarali amalga oshirishda tarixiy sharoitlarni hisobga olgan holda shakllantirish, xususiy tartibda toʻlanadigan qoʻshimcha pensiyalarni tashkil etish, ijtimoiy himoyaning usul va tamoyillari, ijtimoiy taʼminotning sotsiologik xususiyatlari, oilalarga ijtimoiy xizmat koʻrsatish, aholiga manzilli ijtimoiy xizmat koʻrsatish, yoshi kattalarga pensiya taʼminoti, ijtimoiy taʼminotning oʻziga xos xususiyatlari, nogironlarga, bolalarga, yolgʻizlarga toʻlanadigan ijtimoiy yordam, xususiy sektorlarda amalga oshiriladigan ijtimoiy taʼminot, shuningdek, hal qilinayotgan muammolarning oʻxshashligi, ijtimoiy taʼminotning zamonaviy yondashuvlari, uslublari va sotsiologik nazariyalardan unumli foydalanishni tadqiq etishni ilgari surmoqda.

Yangi Oʻzbekistonda ijtimoiy taʼminot sohasini izchillik bilan takomillashtirishda moddiy omillar bilan bir qatorda, maʼnaviy omillarga ham alohida eʼtibor qaratilmoqda. “Aholining muayyan qatlami oʻrtasida kambagʻallik mavjudligini birinchi marta tan olib, uni qisqartirish boʻyicha keng qamrovli ishlar boshlandi. Barcha tuman va shaharlarda, har bir mahallada ehtiyojmand oilalar, ayollar va yoshlar bilan manzilli ishlash boʻyicha mutlaqo yangi – “temir daftar” , “yoshlar daftari”, “ayollar daftari” tizimi joriy etildi”². Darhaqiqat, ehtiyojmand oilalar bilan manzilli ishlash, oʻzini oʻzi band qilgan aholi uchun soliq imtiyozlari berilishi, dehqon xoʻjaligi egalariga imtiyozli kredit va subsidiya ajratilishi, ijtimoiy nafaqa oluvchilar soni oshirilishi, ijtimoiy sohaga yaʼni ijtimoiy taʼminotga boʻlgan muhim eʼtibor hisoblanadi. Ehtiyojmand oilalar bilan manzilli ishlash umuman, ijtimoiy sohaga boʻlgan eʼtibor yangi Oʻzbekistonning ijtimoiy taʼminoti uchun maʼnaviy omillardan biri boʻlib xizmat qiladi. Ijtimoiy taʼminot sohasida amalga oshirilayotgan ishlarni sotsiologik tahlil qilish, bu borada zarur imkoniyatlarni yaratishga koʻmaklashadigan kompleks ijtimoiy taʼminot tizimni yanada takomillashtirish yoʻnalishlarda sotsiologik

¹ Доклад о социальной защите в мире в 2020-2022 годах: Социальная защита на распутье – на пути к лучшему будущему. Исключая медицинское обеспечение и пособия по болезни. file:///C:/Users/Windows7/Downloads/wcms_817581.pdf

² Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 29.12.2020.

izlanishlarni amalga oshirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida», 2021 yil 17 fevraldagi PF-5634-son «2021-2030 yillarda O‘zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2020 yil 30 iyuldagi PF-6038-son «Koronavirus pandemiyasi davrida ijtimoiy himoyaga va yordamga muhtoj aholi qatlamlarini moddiy qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi farmonlari, 2020 yil 4 avgustdagi PQ-4797-son «Aholiga davlat ijtimoiy xizmatlari va yordamni taqdim etish tartib-taomillarini avtomatlashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 5 martdagi 122-son «Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish hamda sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2021 yil 28 apreldagi 250-son «Moddiy yordam va ko‘makka muhtoj oilalarni, xotin-qizlar va yoshlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabrdagi PF-158-son «O‘zbekiston — 2030» Strategiyasi to‘g‘risida Farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ilmiy tadqiqotlari dasturining ustuvor yo‘nalishlari doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi³.

Xalqaro miqyosda ijtimoiy ta‘minot, xususan, pensiya, nafaqa, ijtimoiy yordam, ijtimoiy xizmat masalalariga bag‘ishlangan tadqiqotlar bir qator yetakchi ilmiy markazlar, universitet va institutlar tomonidan, jumladan, Frankfurt School of Finance & Management (Germaniya), Berlin School of Economics and Law Schöneberg Campus (Germaniya), Ankara universiteti (Turkiya), Al-Azhar universiteti (Misr), Qoxira universiteti (Misr), University of New Hampshire (AQSH), University of British Columbia (Kanada), University of Lisbon (Portugaliya), University of Glasgow (Buyuk Britaniya), University of London (Buyuk Britaniya), University of Reading (Buyuk Britaniya), Moskva davlat universiteti (Rossiya), Moskva davlat xalqaro munosabatlar instituti (Rossiya) va Rossiya Fanlar akademiyasi huzuridagi «Sotsiologiya» ilmiy-tadqiqot institutida faol tarzda olib borilmoqda.

Ijtimoiy ta‘minotning ijtimoiy-iqtisodiy omiliga oid jahonda olib borilgan tadqiqotlar natijasida bir qator, jumladan, quyidagi ilmiy natijalarga erishilgan: aholini ijtimoiy ta‘minotida davlat organlarining ishtirokini minimal darajada tushirib, nodavlat sektori faoliyati birinchi darajaga ko‘tarilgan (Frankfurt School of Finance & Management, Germaniya); davlat va nodavlat sektorining ijtimoiy xizmatlar

³ Диссертация мавзуси бўйича хорижий илмий-тадқиқотлар шарҳи <http://www.azhar.eg/observer-en/>, www.researchgate.net, www.eva-leipzig.de, www.jstor.org, www.ezw-berlin.de, www.worldcat.org, www.onlinelibrary.wiley.com, www.pw-portal.de, www.tariqramadan.com ва бошқа манбалар асосида амалга оширилди.

sohasidagi faoliyatini faqat moliyalashtirishda ko‘mak bergan (University of New Hampshire, AQSH); xususiy tadbirkorlar, kompaniyalar, biznes tuzilmalari tomonidan nodavlat sektorni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan mablag‘lari moliyalashtirishning salmoqli qismini tashkil etgan (University of British Columbia, Kanada); davlatning oldida turgan asosiy vazifalardan biri aholining minimal darajadagi ijtimoiy ko‘mak bilan ta‘minlashga erishish (University of New Hampshire, AQSH), ijtimoiy muammolarni hal qilinishiga davlat tomonidan katta e‘tibor qaratilishi va bunga nodavlat sektorning jalb qilinishi, ular faoliyatining huquqiy vakolati, faoliyat doirasini kengaytirish, hususiy sektorning ham ijtimoiy mas‘uliyati va ishtirokini ta‘minlash masalasi birinchi darajada ishlab chiqilgan (Berlin School of Economics and Law Schöneberg Campus, Germaniya), ijtimoiy himoyaga muxtoj aholiga nogironlar, ishsizlar, boquvchisini yo‘qotganlar, qariyalar nafaqaning turli ko‘rinishlaridan foydalanishlari aniqlangan (University of Glasgow, Buyuk Britaniya).

Dunyoda ijtimoiy ta‘minotning ijtimoiy omillaridan hisoblangan pensiya, nafaqa va ijtimoiy yordamning sotsial ahamiyati bo‘yicha qator, jumladan, quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: ijtimoiy ta‘minot turlaridan foydalanganda nodavlat ko‘rinishidagi sug‘urta kompaniyalarini kengaytirish; kam ta‘minlangan ehtiyojmand aholini ijtimoiy himoya qilishda barcha himoyaga muxtoj qatlarni qamrab olish; ijtimoiy ko‘makka muhtoj kishilarni ijtimoiy himoya qilishda imtiyozlardan samarali foydalanish.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ijtimoiy ta‘minot tizimini rivojlantirish masalalarining metodologik asosini qadimdan olimlarni qiziqtirib kelgan. Agar o‘tmish davrning mutafakkirlari ijodiga murojaat qilinsa, ularning aksariyati bunday muammoni eng go‘zal tarzda yo‘lga qo‘yganlar va bu ishga asos solganlar. Antik davrda Pifagor, Geraklit, Platon, Aristotel, O‘rta va Yaqin Sharqning qomusiy allomalari Abu Nasr Forobiy, Yusuf Xos Hojib, Ibn Xaldun, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, imom G‘azzoliy, Alisher Navoiy va boshqa ko‘plab allomalarimiz inson aqli va tafakkur dunyosini takomillashtirish borasida katta ishlarni amalga oshirdilar. Ular insonni jonzotlar ichidagi yagona aqlli mavjudot sifatida e‘tirof etib, o‘zlarining asar va risolalarida e‘tiqod masalasi, komillik, inson hayoti va o‘limi, taqdir, tinchlik, jamiyat, borliq, bilish kabi ko‘plab masalalar tadqiq etilgan. Ayniqsa, Abu Nasr Forobiyning “Fozil odamlar shahri” kitobida ta‘riflangan zaruriy ehtiyojlar razolat (tubanlik) va badbaxtlik⁴ haqida keltirilgan.

Xorijiy mamlakatlar olimlari M. Veber, G. Zimmel⁵, E. Dyurkgeym, O. Kont, G. Spenser, T. Parsons, B. Malinovskiyalar ijtimoiy himoya, ijtimoiy tabaqalanishni tadqiq etishgan bo‘lsa, Mayk Payper, Andi Landis, J.Mark⁶ va boshqalar ijtimoiy taraqqiyotni amalga oshirishda ijtimoiy himoya, jumladan, fuqarolarni ijtimoiy himoya qilishda

⁴ Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. –Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993. 162-бет

⁵ Зиммель, Г. Социальная дифференциация. Социологические и психологические исследования / Г. Зиммель; авториз. пер. с нем. Н. Н. Бокач, И. Ильина. – Москва; Берлин: Директ-Медиа, 2014. – 233 с.

⁶ Майк Пайпер (Social Security Made Simple) 2017, -130 стр; Devin Carroll. Social Security Basics: 9 Essentials That Everyone Should Know Paperback – April 5, 2018. -108 стр; Andy Landis. Social Security: The Inside Story, 2018 Silver Anniversary Edition Paperback – January 10, 2018. -308 стр; Mr. Mark J. Orr CFPSocial Security Income Planning: The Baby Boomer’s 2021 Guide to Maximize Your Retirement Benefits Paperback – October 2, 2013. -129 стр

ijtimoiy ta'minotning o'rnini tadqiq qilinganligini qayd etish lozim. MDH olimlari S.V.Shishkin, V.I.Bogdanovskaya, A.K.Solovyov, N.B.Topka, Z.Zamarayeva, N.A.Volgin, V.P.Galaganov⁷larning tadqiqotlari muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur olimlarning tadqiqotlarini asrlar ajratib turadi, ammo ijtimoiy ta'minot, ijtimoiy himoya muammolariga bag'ishlangan maxsus va ilk tadqiqotlardan bo'lganligi ularni birlashtiradi.

Mamlakatimiz olimlari M.Bekmurodov, A.Saidov, Sh.Sodiqova, A.Umarov, A.Qaxxarov, A.Yuldashev, N.Aliqoriyev, Q.Abduraxmanov, A.Begmatov, M.Ganiyeva, O.Ota-Mirzayev, T.Matibayev, T.Narbayeva, B.Farfiyev, O.Abduazimov, B.Karimov, K.Kalonov, R.Ubaydullayeva, A.Seitov, F.Parmanov kabi mamlakatimiz olimlari ijtimoiy ta'minotni jamiyat ma'naviy hayotining ajralmas qismi sifatida davr talablari asosida tadqiq qilishgan⁸.

Mamlakatimizda olib borilgan tadqiqotlarda ijtimoiy ta'minot yo'nalishida qilinayotgan ishlar sotsiologik jihatdan tahlil etilgan bo'lsada, biroq muammoning ijtimoiy ta'minot tizimi doirasida nazariya va amaliyot uyg'unligiga asoslangan tadqiqotlarni amalga oshirish dolzarb, ilmiy-amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Dissertatsiya ishining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassassasi ilmiy tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq «Jamiyat barqaror taraqqiyoti sharoitlarida sotsial jarayonlar va hodisalar tadqiqoti» mavzuidagi ilmiy tadqiqot ishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekistonda ijtimoiy ta'minot tizimini yanada takomillashtirish.

Tadqiqotning vazifalari.

“ijtimoiy ta'minot” fenomenini tizimli tadqiq etish va sotsiologik kategoriya sifatida tavsiflash;

sotsiologik ilmiy maktablarning ijtimoiy ta'minot tizimiga oid nazariy yondashuvlarini ilmiy asoslash;

ijtimoiy ta'minot tizimini rivojlantirishning metodologik asoslarini ochib berish;

O'zbekistonda ijtimoiy ta'minot tizimining rivojlanish bosqichlarini sotsiologik asoslash;

ijtimoiy ta'minot tizimi: jahon tajribasi holatini baholash;

O'zbekistonda ijtimoiy ta'minot tizimining o'ziga xosligi bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish;

ijtimoiy ta'minot tizimini tahlil etishda sotsiologik tadqiqotlar metodikasi empirik darajada aniqlash;

ijtimoiy ta'minot tizimini rivojlantirishning ahamiyatini sotsiologik jihatdan ochib

⁷ С.В.Шишкин. Социальное обеспечение экономических реформ, -М.: 2002, -572 стр; В.И.Богдановская.Роль Университета третьего возраста в социальной работе с пожилыми людьми. (Аспирантура, Бакалавриат, Магистратура). Монография. –М.: 2021, -56 стр. А.К.Соловьёв. Пенсионные права застрахованных лиц: проблемы формирования и риски реализации. –М.: 2020. -327 стр. Н.Б.Топка. Социальная работа с инвалидами. (Бакалавриат). Учебное пособие. –М.: 2021, -400 стр. З.Замараева. Социальная защита и социальное обслуживание населения. –М.: 2017, -175 стр. Н.А.Волгин. Основы социального государства. – М.: 2019. -421 стр. В.П.Галаганов.Право социального обеспечения. Практикум. (СПО). Учебное пособие, - М.: 2021, -153 стр,

⁸ Бу ва бошқа манбалар диссертациянинг фойдаланилган адабиётлар рўйхатида келтирилган.

berish;

O‘zbekistonda ijtimoiy ta‘minot tizimini samarali rivojlantirish yo‘llarini nazariy va amaliy jihatdan ko‘rsatib berish;

jamiyat barqarorligini ta‘minlashda ijtimoiy ta‘minot tizimi muhim atribut ekanligini asoslash;

Tadqiqotning obyekti O‘zbekistonda ijtimoiy ta‘minot tizimi.

Tadqiqotning predmeti ijtimoiy ta‘minot tizimini takomillashtirishning mazmun-mohiyati, uning xususiyatlari va mazkur jarayonda vujudga keladigan ijtimoiy-siyosiy munosabatlar.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotni olib borishda tizimli, tarixiy, qiyosiy tahlil, anketa so‘rovi, ekspert so‘rovi, hujjatlarni tahlil qilish kabi umumilmiy va empirik metodlardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

O‘zbekistonda ijtimoiy ta‘minot tizimini taraqqiyotning yangi bosqichiga inklyuziv hamda meritokratik diskurs asosida odamlarni rozi qilish tamoyili sotsiologik asoslantirilgan;

sotsiologik ilmiy maktablarning ijtimoiy ta‘minot tizimiga oid nazariy yondashuvlari asosida “ijtimoiy ta‘minot”, “ijtimoiy nafaqa”, “ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash”, “ijtimoiy sug‘urta”, “ijtimoiy kafolat”, tushunchalariga sotsiologik kategoriya sifatida ta‘rifi ishlab chiqilgan va milliy sotsiologiya faniga kiritilgan;

ehtiyojmand fuqarolarning ijtimoiy ta‘minotini to‘liq qamrab olinishiga erishilishida ijtimoiy ta‘minot sohasidagi sug‘urta tizimi negizida “ijtimoiy sug‘urta” jamg‘armasini tashkil etilishi asoslantirilgan;

aholining ijtimoiy ta‘minot xizmat turlaridan foydalanishini to‘g‘ri taqsimlashda insonga uning ehtiyojlaridan kelib chiqib manzilli ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatishga asoslangan ekspert kuzatuvini mahallalarda yo‘lga quyilishi sotsiologik asoslantirilgan;

hayot sifatini oshirishga yo‘naltirilgan ijtimoiy ta‘minotning raqamli klasterlarini (davlat budjeti, majburiy sug‘urta badallari, ixtiyoriy sug‘urta badali qamrovini kengaytirish) shakllantirilishi negizida inson omiliga xizmat qiluvchi raqamlashtirilgan ijtimoiy ta‘minotning milliy tizimi sotsiologik asoslantirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilarda namoyon bo‘lgan:

“ijtimoiy ta‘minot” tushunchasi sotsiologik kategoriya sifatida tavsiflangan; sotsiologik ilmiy maktablarning ijtimoiy ta‘minot tizimiga oid nazariy yondashuvlari ilmiy asoslangan;

ijtimoiy ta‘minot tizimini rivojlantirishning metodologik asoslari aniqlangan; O‘zbekistonda ijtimoiy ta‘minot tizimining rivojlanish bosqichlari sotsiologik asoslantirilgan;

ijtimoiy ta‘minot tizimida jahon tajribasi holati tahlil etilgan; O‘zbekistonda ijtimoiy ta‘minot tizimining o‘ziga xosligi bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

ijtimoiy ta‘minot tizimini tahlil etishda sotsiologik tadqiqotlar metodikasi empirik aniqlangan; ijtimoiy ta‘minot tizimini rivojlantirishning ahamiyati sotsiologik jihatdan ochib berilgan;

O‘zbekistonda ijtimoiy ta‘minot tizimini samarali rivojlantirish yo‘llari nazariy va

amaliy jihatdan ko'rsatib berilgan; jamiyat barqarorligini ta'minlashda ijtimoiy ta'minot tizimi muhim atribut ekanligi sotsiologik asoslantirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, uning doirasida foydalanilgan nazariy yondashuvlar tarixiy va rasmiy manbalardan olingani, aholi turli qatlamlari orasida o'tkazilgan representativ tanlovga asoslangan empirik sotsiologik tadqiqot hamda soha mutaxassislari o'rtasida olib borilgan ekspert so'rovining natijalariga asoslangani, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati aholining ehtiyojmand qatlamlarini ijtimoiy himoyalash, ijtimoiy ta'minot tizimini yanada takomillashtirishga yo'naltirilgan metodikalarni ishlab chiqish, tizimni raqamlashtirish tendensiyalarida inson omili, ijtimoiy ta'minotning samaradorligini chuqur tadqiq etishga bag'ishlangan maxsus ilmiy ishlarda, shuningdek, jamiyat taraqqiyotining ma'naviy omillarini davlat va jamoat tashkilotlari faoliyati uchun kompleks tarzda tahlil qilish va ushbu tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan farmonlar, qarorlarni ishlab chiqishda manba sifatida foydalanishi bilan izohlanadi;

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, dissertatsiya tadqiqoti g'oya va materiallaridan «Ijtimoiy fikr» jamoatchilik markazi tomonidan o'tkazilgan sotsiologik tadqiqotlarda, oliy o'quv yurtlarida «Sotsiologiya», «Davlat pensiya ta'minoti», «Bolalar va yoshlarni ijtimoiy himoyasi va ta'minoti», «Oila sotsiologiyasi», «Yoshlar sotsiologiyasi», «Ijtimoiy siyosat» va «Ijtimoiy ish», «Ijtimoiy gerontologiya» fanlari bo'yicha o'quv dasturlarini takomillashtirish, darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar tayyorlash hamda o'qitish jarayoniga tatbiq etilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbekistonda ijtimoiy ta'minot tizimini rivojlantirish: sotsiologik tahlil qilish asosida:

yoshlarni ijtimoiy himoya qilish, turmush darajasini yaxshilash, kam ta'minlangan oilalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ehtiyojmand yoshlarning ijtimoiy ta'minotini to'liq qamrab olinishiga erishilishi hamda O'zbekistonda ijtimoiy ta'minot tizimini taraqqiyotning yangi bosqichiga inklyuziv hamda meritokratik diskurs asosida odamlarni rozi qilish tamoyili sotsiologik asoslantirilganiga doir taklif va tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 7 iyundagi «Yoshlar muammolarini o'rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 312-sonli Qarorining 4-qarorini 6-xatboshisida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining 2024 yil 7 oktabrdagi № 3-13-21-5257-son dalolatnomasi). Natijada, Yoshlarni ijtimoiy himoya qilish, turmush darajasini yaxshilash, kam ta'minlangan oilalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashda ehtiyojmand yoshlarning ijtimoiy ta'minotini to'liq qamrab olinishiga erishish asosida ushbu tizimni yanada takomillashtirish imkonini berdi.

ehtiyojmand fuqarolarning ijtimoiy ta'minotini to'liq qamrab olinishiga erishilishida ijtimoiy ta'minot sohasidagi sug'urta tizimi negizida «ijtimoiy sug'urta» jamg'armasini tashkil etilishi hamda hayot sifatini oshirishga yo'naltirilgan ijtimoiy ta'minotning raqamli klasterlarini (davlat budjeti, majburiy

sugʻurta badallari, ixtiyoriy sugʻurta badali qamrovini kengaytirish) shakllantirilishi negizida inson omiliga xizmat qiluvchi raqamlashtirilgan ijtimoiy taʼminotning milliy tizimi sotsiologik asoslantirilganligiga doir taklif va tavsiyalardan Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 1 martdagi “Oila va xotin-qizlar davlat qoʻmitasi faoliyatini tashkil etish toʻgʻrisida”gi PQ-146-son Qarorining 10-taklifini 3-xatboshisida belgilangan vazifalarni ishlab chiqishda foydalanilgan (Oila va xotin-qizlar qoʻmitasi “Oila va gender” ilmiy-tadqiqot institutining 2024 yil 8 oktabrdagi № 01-09/2199-son maʼlumotnomasi). Natijada, fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish, turmush darajasini yaxshilash, kam taʼminlangan oilalarni har tomonlama qoʻllab-quvvatlashda ehtiyojmand fuqarolarning ijtimoiy taʼminotini toʻliq qamrab olinishiga erishish asosida ushbu tizimni yanada takomillashtirish imkonini berdi.

sotsiologik ilmiy maktablarning ijtimoiy taʼminot tizimiga oid nazariy yondashuvlari asosida “ijtimoiy taʼminot”, “ijtimoiy nafaqa”, “ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash”, “ijtimoiy sugʻurta”, “ijtimoiy kafolat”, tushunchalariga sotsiologik kategoriya sifatida taʼrifi ishlab chiqilgan va milliy sotsiologiya faniga kiritilganligi ilmiy asoslab berilganligiga oid takliflardan “Ijtimoiy fikr” Respublika jamoatchilik fikrini oʻrganish Markazi tomonidan 2023 yil barcha viloyatlarda “Ijtimoiy fikr - 2023” mavzusida oʻtkazilgan sotsiologik soʻrovd ilk bor eksperimental tarzda foydalanilgan (“Ijtimoiy fikr” Respublika jamoatchilik fikrini oʻrganish Markazining 2024 yil 23 avgustdagi №01-16/202-son maʼlumotnomasi). Natijada, aholini ijtimoiy taʼminot tizimida “ijtimoiy taʼminot”, “ijtimoiy nafaqa”, “ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash”, “ijtimoiy sugʻurta”, “ijtimoiy kafolat” tushunchalarini sotsiologik baholash orqali ushbu tizimni yanada takomillashtirish imkonini bergan.

aholining ijtimoiy taʼminot xizmat turlaridan foydalanishini toʻgʻri taqsimlashda insonga uning ehtiyojlaridan kelib chiqib manzilli ijtimoiy xizmat va yordam koʻrsatishga asoslangan ekspert kuzatuvini mahallalarda yoʻlga quyilishi boʻyicha takliflar ishlab chiqishda foydalanilgan. Ushbu ilmiy xulosalar ijtimoiy taʼminotda insonga uning ehtiyojlaridan kelib chiqib manzilli ijtimoiy xizmat va yordam koʻrsatish orqali inson shaxsiyatiga hurmat va ehtirom bilan jamiyatga integratsiya qilinishiga koʻmaklashishga xizmat qilgan (Oʻzbekiston Mahallalari Uyushmasining 2024 yil 9 oktabrdagi №02-02/1037-son dalolatnomasi). Natijada dissertatsiyada ilgari surilgan takliflar, tavsiyalar va xulosalar Yangi Oʻzbekiston jamiyati mahallarida ijtimoiy sohaga boʻlgan eʼtibor kuchayishining maʼnaviy omillaridan biri boʻlib xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta respublika, 2 ta xalqaro ilmiy va amaliy konferensiyalarda maʼruzalar shaklida sinovdan oʻtkazildi.

Tadqiqot natijalarining eʼlon qilinishi. Dissertatsiya ishining natijalari boʻyicha 2 ta monografiya, 19 ta ilmiy maqola (8 tasi xorijiy nashrda), 6 ta ilmiy-amaliy konferensiya toʻplamlarida nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 4 ta bob (12 ta paragraf), xulosa, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati va ilovadan iborat boʻlib, ishning umumiy hajmi 261 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning «**Kirish**» qismida tadqiqot ishining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yoʻnalishlariga mosligi, muammoning oʻrganilganlik darajasi, tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy taʼlim muassasasining ilmiy–tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti va usullari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy-amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy etilganligi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlarning soni, dissertatsiyaning tuzilishi asoslangan.

Dissertatsiya ishining «**Ijtimoiy taʼminot tizimi rivojlanishining nazariy-metodologik asoslari**» deb nomlangan birinchi bobida sotsiologiya ilmiy maktabi namoyondalari, ular yashab ijod etgan davrlar hamda mazkur ilmiy maktablar tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy taʼminot sohasini rivojlantirishga oid nazariyalari koʻrib chiqildi (1-jadval):

1-jadval.

№	Ilmiy maktablar	Ilmiy maktab namoyondalari	Yillar	Ilgari surilgan nazariyalar
1	Sharq sotsiologiya ilmiy maktabi	Al-Buxoriy Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ibn Xaldun, Bahouddin Naqshbandiy Alisher Navoiy	873- 1501	Odamlarni turli belgilarga qarab guruhlariga boʻlishi: kishilarning diniy mazhabiga, millatiga, irqiga qarab emas, balki tabiiy xususiyatlariga, qobiliyatlariga, avvalo aqliy iqtidoriga hamda ilmlarni oʻrganish, hayotiy tajriba toʻplash jarayonida orttirgan bilim va koʻnikmalariga katta ahamiyat berishi, oʻzaro yordam, dono boshqaruv, boshliq va xodimning iyerarxik munosabatlarida meyor, farosat, jamiyat rivojlanishida bidava (ibtidoiylik) va xidara (sivilizatsiya) bosqichlari; toʻgʻri mehnat taqsimoti; inson omilini hisobga olish; qatlamlarga boʻlinish, mijozning roziligiga asosiy ijtimoiy va maʼnaviy oʻlchov sifatida qarash, holatni toʻgʻri baholay olish; yetimlarga mehr-muruvvatli boʻlish; zaiflarga shafqatli boʻlish; aql va tafakkurning bosh tamoyili sifatida belgilanishi.
2	Fransiya sotsiologiya ilmiy maktabi	O.Kont, E.Dyurkgeym, G. Tard, G. Lebon, Moss, L. Levi-	1843- 1904 1898- 1913	Jamiyatni ijtimoiy faktlarni oʻrganish yoʻli bilan va faqat ijtimoiy toifalarda oʻrganish; pozitivizm, ijtimoiy birdamlik konsepsiyasi; aholining eng kambagʻal qatlamlari manfaatlarini hisobga olgan

		Bryul, S.Bugle, J.Davi, P.Lapi, P.Gers, M.Xalbvaks		holda sinfiy qarama qarshiliklarni tinch yo‘l bilan hal qilishni liberal pozitsiyalarda amalga oshirish; jamoaviylik asosida ijtimoiy institutlarni tashkil qilish.
3	Avstriya-Germaniya sotsiologiya ilmiy maktabi	G. Zimmel, L. Gumplovich, G. Ratsenxofer, F. Tennis, M. Veber, G. Zombart, L. Vize, 3. Freyd	1838-1900	Fakt va hodisalarning umumiy qoidalarini ishlab chiqish; ijtimoiy harakatni ratsionallashtirish; sotsial stratifikatsiya, aholi ijtimoiy qatlamlarini turli maqom guruhlariga bo‘lish mezoniga tayanish.
4	Buyuk Britaniya sotsiologiya ilmiy maktabi	G.Spenser, A.Marshall, E.Galley, G.King, V.Petti, Ch.But, Beatrisa va Sidney Vebb, P.Tompson, M.Rid	1820-1903r	Evolyutsiya nazariyasi; integratsiya va differentsiatsiya birligi; ijtimoiy ta‘minot institutlari tirik organizm kabi o‘sib borishi va rivojlanishi, tuzilishi jihatidan farqlanishi, o‘z vazifalarini belgilashi va bajarishi, mustaqil mavjud bo‘la oladigan qismlarga bo‘linishi; inson kapitaliga sarmoya kiritish.
5	Amerika sotsiologiya ilmiy maktabi	P.Sorokin, E.Meyo, T.Parsons, A. Maslou, R.Merton, R.Park, E.Berdjess, F.Znanetskiy	1841 - 1913 1855- 1931 1863- 1931	Insoniy munosabatlar nazariyasi; sotsial mobillik, ijtimoiy guruhlar o‘rtasidagi chegaralar; ta‘minot davlat budjetidan sarflanishini emas, balki jamiyat insonning farovon yashashi uchun o‘z-o‘zini band qilishiga sharoit yaratib berish; jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi ijtimoiy sug‘urta mablag‘larini kiritish; ijtimoiy ta‘minot tizimini sotsiologik modellashtirish, strategik maqsadlarini belgilashda tizimli yondashuv, liberalizm, inson huquqlari.
6	Rossiya Federatsiyasining sotsiologiya ilmiy maktabi	M.M.Kovalevskiy, G.Plexanov N.I.Ziber V.Solovyev N.Berdyayev G.V.Osipov, A.A.Radugin	1987, 1997	Ijtimoiy qadriyatlar, meyorlar va xulq-atvor namunalari bilan belgilangan ijtimoiy rollarni bajarish asosida maqsadlarga birgalikda erishish.
7	O‘zbekiston milliy sotsiologiya ilmiy maktabi	M.Bekmurodov , A.Qahharov	1992 2022	Jamoatchilik fikri, konsensus, kompromiss, mentalitet, tafakkur tarzi, ma‘rifatli jamiyat, inklyuzivlik,

	ya maktabi	A.Xolbekov, A.Umarov, T.Matiboyev, SH.Sodiqova, O.Abdumuzimov, B.Farfiyev	emerjentlik, eskapizim, farosat ilmi, insonning yuksak fazilati asosan uning mustaqil fikrga egaligi, ish faoliyati va yashash tarzi bilan belgilanishi; insonni nafaqat jismoniy va ma'naviy fazilatlari, balki uning turmush tarzi moddiy farovonligi bilan ham bog'liqligi; jamiyat demokratik taraqqiyotining ma'naviy-axloqiy qadriyatlar bilan uyg'unligi xalqimizning fazilatlari, sharqona tafakkuri va turmush tarzidan kelib chiqishi; aholida mutoola madaniyatini oshirish orqali ularning dunyoqarashini o'zgartirish; ijtimoiy adolat; keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan ijtimoiy qo'llab-quvvatlanishi, ijtimoiy himoya va tibbiy-ijtimoiy yordamning zamonaviy mexanizmlarini amalga oshirilishi, shuningdek, ijtimoiy himoya, ma'naviy-axloqiy qadriyat hamda milliy an'analarning turmush tarzidagi ijtimoiy mavqeining yuksalishi.
--	-----------------------	--	---

Ijtimoiy ta'minotga oid sotsiologiya ilmiy maktablarini o'rganar ekanmiz, bunda, avvalo Sharq sotsiologiya ilmiy maktabini e'tirof etish joiz. Bu borada al-Buxoriy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ibn Xaldun, Bahouddin Naqshbandiy, Alisher Navoiylarning shoh asarlarida odamlarni turli belgilarga qarab guruhlarga bo'lishi: kishilarning diniy mazhabiga, millatiga, irqiga qarab emas, balki tabiiy xususiyatlariga, qobiliyatlariga, avvalo aqliy iqtidoriga hamda ilmlarni o'rganish, hayotiy tajriba to'plash jarayonida orttirgan bilim va ko'nikmalariga katta ahamiyat berishi, o'zaro yordam, dono boshliq, tenglik (Forobiy); jamiyat rivojlanishida bidava (ibtidoiylik) va xidara (sivilizatsiya) bosqichlari (Ibn Xaldun); to'g'ri mehnat taqsimoti (Beruniy); inson omilini hisobga olish, qatlamlarga bo'linish, mijozga qarab baholash (Ibn Sino); yetimlarga mehr-muruvvatli bo'lish (Buxoriy); ilohiy va dunyoviy turmush tarzi nisbati, zaiflarga shafqatli bo'lish (Naqshbandiy); kasbi komillik, aql, intuitsiya va tafakkur nisbati, ekstropolyatsiya (Navoiy) nazariyalarini ilgari surishgan.

Ibn Sinoning fikricha "...har qanday jamiyatda mehnatga layoqatsiz kishilar, ya'ni boquvchisi bo'lmagan keksalar, yetim-yesirlar hamda ishlab chiqarishda bevosita qatnashmaydigan harbiylar, posbonlar esa davlat tomonidan ta'minlanadilar. Ularga sarflanadigan mablag'lar fuqarolarning ko'chmas mulki va daromadlaridan olinadigan soliqlar, jinoyatchilar va qonunbuzarlar-o'g'rilar, ashaddiy qimorbozlar va boshqa toifadagi odamlardan undirib olinadigan jarimalar hisobidan qoplanadi"⁹. Bu borada al-Buxoriy "yetimlar boshini silash, qariyalar ahvolidan xabar olish, yordamga muhtoj

⁹ Қаранг: Шайх ал Ард. Ибн Сино фалсафасига кириш. Байрут.1967, 486-бет. (араб тилида).

majruhlarga, beva-bechoralarga yordam qo‘lini cho‘zish, qarindoshlarni ziyorat qilish kabi chin insoniy fazilatlarni kuchaytirish insonparvarlikni yuksa ko‘rinishidir”¹⁰. Mazkur Hadislar ma‘naviyatimiz rivoji, barkamol yoshlarni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Bu borada Sharq allomalarning shoh asarlarida ko‘plab misollar keltiriladi, unda ilgari surilayotgan nazariyalarda aholini ijtimoiy himoyalash masalalari negizida ijtimoiy ta‘minot masalalarini yanada takomillashtirish, zamon talablariga mos ravishda ushbu tizimni yangi bosqichga ko‘tarishga qaratilgan g‘oyalar, nazariyalar ilgari surilgan.

Ogyust Kont tomonidan sotsiologiya terminining ilmiy muomalaga kiritilishi, pozitivizm nazariyasining yaratilishi, E.Dyurkgeym tomonidan Fransiya sotsiologiya ilmiy maktabini rivojlantirilishi muhim ahamiyat kasb etib, 1898-1913 yillarda tashkil etilgan “Sotsiologik yilnoma” jurnalida ko‘plab Ijtimoiy ta‘minotga oid ilmiy maqolalar, monografiyalar, taqrizlar chop etilgan. Bu borada ijtimoiy ta‘minotga oid sotsiologlar, iqtisodchilar, huquqshunoslar, etnograflar, tarixchilar, tilshunoslar va boshqa yo‘nalishlardagi olimlar maktab faoliyatida o‘z nazariyalari bilan ishtirok etishgan¹¹. Sotsiologiya ilmiy maktabining markaziy ya‘ni, birlashtiruvchi g‘oya E.Dyurkgeym tomonidan ifoda etilgan bo‘lib, ijtimoiy birdamlik konsepsiyasi sifatida ilmiy muomalaga kiritildi va aholining eng kambag‘al qatlamlari manfaatlarini hisobga olgan holda qarama qarshiliklarni tinch yo‘l bilan hal qilishni liberal pozitsiyalarda amalga oshirishning maqbulligi asoslandi.

Kuchli ijtimoiy himoya O‘zbekistonning milliy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasining ajralmas qismidir. Ijtimoiy himoyaning muhim tarmog‘idan biri bu ijtimoiy ta‘minot hisoblanadi. Ijtimoiy ta‘minot asosan davlat yo‘li bilan fuqarolarni ta‘minlash va qo‘llab-quvvatlash, davlat ijtimoiy ta‘minot tizimlari nazarda tutiladi¹². Ijtimoiy ta‘minot fuqarolarning ijtimoiy maqomini tenglashtirishni ifodalaydi va muayyan muammoviy faktlar yuzaga kelganda, davlat tomonidan tashkil etiladigan yordam shakli hisoblanib, u asosan fuqarolarga keksayganda, mehnatga layoqatsiz bo‘lganda hamda boquvchisini yo‘qotganda moddiy, tibbiy va boshqa ko‘rinishdagi xizmatlardan foydalanish demakdir.

Bugungi kunda ijtimoiy ta‘minot tizimini quyidagi jadvalda ko‘rishimiz mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 46-moddasida: “Har kim qariganda, mehnat layoqatini yo‘qotganda, shuningdek, boquvchisidan mahrum bo‘lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta‘minot olish huquqiga ega. Pensiyalar, nafaqalar, ijtimoiy yordam boshqa turlarining miqdori rasman belgilab qo‘yilgan tirikchilik uchun zarur eng kam miqdordan oz bo‘lishi mumkin emas”¹³. Mamlakatimizda O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi xuzuridagi budjetdan tashqari pensiya jamg‘armasi, bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari pensionerlarni, nogironlarni, voyaga yetmagan bolalari bo‘lgan oilalarni, ishsiz fuqarolarni, kam ta‘minlangan oilalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash vazifasini bajaradi, ijtimoiy xizmatlar tizimini ishlab chiqadi hamda ijtimoiy himoya

¹⁰ Ислом нури. 1993, 67-сон, 1-бет.

¹¹ <https://ru.wikipedia.org/wiki/>

¹² Қаранг: Ю.Турсунов. Ўзбекистон Республикасининг ижтимоий таъминот ҳуқуқи. –Т.: “Ворис-нашриёт”, 2012, 9-бет.

¹³ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. 39-модда, –Т.: 2014.-Б.15.

qilish sohasida davlat siyosatini ta'minlash bo'yicha boshqaruv organlari hisoblanadi.



1-rasm. Ijtimoiy ta'minotni amalga oshiruvchi manbalar

Tadqiqotimiz mobaynida ijtimoiy ta'minot tizimini ikkita guruhga bo'lib o'rgandik. Bular qo'yidagilar:

1. Mulkiy (pul, boshpana, narsalar, xizmatlar)
2. Nomulkiy (mehribonlik, g'amxo'rlik, hamkorlik, psixologik yordam)¹⁴

Birinchi guruhga tegishli bo'lgan ijtimoiy ta'minot qonuniy yordam shakli hisoblanib, quyidagilarga beriladi:

1. Ma'lum bir yashash manbaiga ega bo'lgan, ammo bu manba ular tomonidan vaqtincha yo'qolgan va tiklanishi kerak bo'lgan muhtoj odamlar toifalariga ko'rsatiladi.

2. Yordamga muhtojlar doimiy yashash manbaiga ega bo'lgan, lekin uning hajmi juda kichik bo'lgan va asosiy tirikchilikni ta'minlashga qodir bo'lmagan hollarda ko'rsatiladi;

3. Yordamga muhtojlar doimiy yoki asosiy tirikchilik manbasini yo'qotmagan bo'lsa ham, lekin kutilmagan fuvqulotda vaziyatlar tufayli, masalan, sog'lig'i bilan bog'liq muammolar natijasida, tabiiy ofatlar va boshqa ofatlarda muhtojlik holatiga tushib qolsa ham ko'rsatilishi mumkin.

Ikkinchi guruhning maqsadi: ijtimoiy ta'minot insonga ma'naviy-ruhiy yordam berish, uning hayoti uchun zarur vositalar bilan ta'minlash majburiyatini davlat o'z zimmasiga oladi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, biz ijtimoiy ta'minotga mualliflik ta'rifini ishlab chiqdik.

Ijtimoiy ta'minot bu fuqarolarning ijtimoiy mavqeini tenglashtirish muayyan hayotiy holat va faktlar yuzaga kelganda inklyuziv yondashish, keksaygan, mehnatga layoqatsiz va boquvchisini yo'qotgan fuqarolarga mehrlil munosabatni ta'minlash, aholining ko'payishi, o'sish bosqichlari, fiziologik, intellektual, moddiy va ma'naviy yuksalishini qo'llab-quvvatlash, ehtiyojmand fuqarolar, oilalarga moddiy, tibbiy va ijtimoiy yordam shaklini ko'rsatish bo'yicha davlat tomonidan muntazam amalga oshiriladigan ijtimoiy, ma'naviy va iqtisodiy tadbirlar tizimi¹⁵.

¹⁴ Каранг: Аракчеев В.С., Агашев Д.В., Гречук Л.А. Право социального обеспечения России Часть 1: учебное пособие. - Томск: Изд-во НТЛ, 2006. С.31. — М.: Изд-во НТЛ, 2006. — С. 31.

¹⁵ Муаллиф томонидан "Ижтимоий таъминот" тушунчасига социологик таъриф берилди.

Bugungi kunda ijtimoiy ta'minotning bir necha turlari mavjud bo'lib, u quyidagilarni o'z ichiga oladi:



2-rasm. Ijtimoiy ta'minot turlari.

Pensiya bu belgilangan (pensiya) yoshiga yetganda, nogironlik yuz berganda, boquvchisini yo'qotganda, shuningdek, belgili muddat xizmat qilgani uchun va davlat oldida alohida xizmatlari uchun fuqarolarning davlat yoki sobiq xodimlarning sobiq ish beruvchilari tomonidan muntazam pul daromadlari bilan ta'minlanishi¹⁶. Fuqarolar ijtimoiy ta'minotning pensiya turidan foydalanishlari uchun Iqtisodiyot va moliya vazirligi xuzuridagi budjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga kamida 7 yil sug'urta badallari to'lagan holatdagina pensiya olish huquqiga ega bo'ladilar¹⁷.

Nafaqa esa muhtoj odamlarga davlat, korxonalar, muassasa va ayrim shaxslar tomonidan beriladigan yordam puli. Fuqaro nafaqa olishi uchun budjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga sug'urta badallarini to'lash talab qilinmaydi. Lekin nafaqaning ham turlari mavjud bo'lib: budjet hisobidan to'lanadigan nafaqalar va sug'urta badallari hisobidan to'lanadigan nafaqa turlariga bo'linadi.

Kompensatsiyalar insonlar o'z faoliyati evaziga oladigan moliyaviy va moliyaviy bo'lmagan mukofotlarning umumiy to'plami hisoblanadi. U xodimlarga beriladigan ish haqi, bonuslar, imtiyozlar va boshqa rag'batlantirishlarni o'z ichiga oladi. Kompensatsiyaning maqsadi iqtidorli xodimlarni jalb qilish va ushlab turish, ularni eng yaxshi natijalarga erishishga undash va tashkilotga qo'shgan hissalarini uchun adolatli kompensatsiyani ta'minlashdir. Kompensatsiya tashkilotning maqsadlari va budjetiga qarab turlicha tuzilishi hamda ichki va tashqi omillar orqali aniqlanadi.

Imtiyozlar muayyan sabablarga ko'ra yuridik va jismoniy shaxslarga beriladigan afzallik hisoblanadi. Ijtimoiy ta'minot sohasidagi imtiyozlar haqida gap ketganda, avvalo biz nogironlarga beriladigan imtiyozlar, nogiron farzandni tarbiyalayotgan otionalarning biriga va hokazo shu tariqa davlat tomonidan berilayotgan imtiyozlarni sanashimiz mumkin. Misol uchun, I va II guruh nogironlariga nafaqa tayinlansa, III

¹⁶ З.Х. Сирожиiddинова. Ўзбекистон Республикаси бюджет тизими. –Дарслик. –Тошкент.: 2010 йил. infoCom.Uz MChJ нашриёти. 367 б.

¹⁷ Ўзбекистон Республикаси “Фуқароларни давлат пенсия таъминоти тўғрисида”ги Қонун, 1993 йил, 3 сентябр, 8-модда. Иш стажи тўлиқ бўлмаган чоғдаги пенсия.

guruh nogironlariga imtiyozlar beriladi, ya'ni ular og'ir mehnat, zararli, xavfli mehnatlardan ozod etiladi. Ularga yengil va qisqa muddatli mehnat faoliyatiga jalb etiladi¹⁸.

Ijtimoiy va tibbiy xizmatlar sog'lom turmush tarzini shakllantirishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish, ijtimoiy-tibbiy masalalar bo'yicha maslahat berishdir. Bugungi kunda nogironligi bo'lgan fuqarolarga orderlar berish orqali ularga bepul tibbiy yordamlar ko'rsatilishi, Reabilitatsiya markazlarida bepul davolanishlari, protez-ortopediya maxsulotlari, eshitish vositalari, nogironlik aravachalari berilishi, yakka-yolg'iz keksalarga uylarida ijtimoiy yordam va xizmat ko'rsatilishi kabilari misol bo'la oladi.

Ijtimoiy yordam va ijtimoiy ta'minot o'rtasidagi farq shundaki, ijtimoiy yordam vaqtinchilik bo'lib, u asosiy tirikchilik manbai emas.


Yuqoridagi ijtimoiy ta'minot turlarini amalga oshiruvchi yagona organ yo'q. Bu funktsiya har xil idoralar orasida taqsimlanib kelinmoqda. Misol, fuqarolarga pensiyalarni tayinlash va to'lash ishlarini budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi, nafaqalarni bir nechta tashkilotlar amalga oshirishini ko'rishimiz mumkin (ishsizlik nafaqasini - bandlikka ko'maklashish markazlari; vaqtincha mehnatga layoqatsizlik naafaqasini – fuqaro ishlab turgan korxonada, dafn etish marosimi uchun beriladigan nafaqa – budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi va x.k.).

Tadqiqot ishining «**O'zbekistonda ijtimoiy ta'minot tizimining o'ziga xos xususiyatlari**» deb nomlagan ikkinchi bobida O'zbekistonda ijtimoiy ta'minot tizimining rivojlanish bosqichlari, shuningdek, ijtimoiy ta'minot tizimi bo'yicha jahon tajribalari ochib berilgan. Ijtimoiy ta'minot – yangi O'zbekiston davlat siyosatining muhim va ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Bu bevosita jamiyatning ijtimoiy, madaniy, va iqtisodiy rivojlanishiga bog'liq bo'lib, xalq farovonligi, odamlarning hayot darajasini har tomonlama oshirishni ko'zda tutadi. Ijtimoiy ta'minot hamda farovonlikka erishish yangi ish o'rinlari, daromad manbalarini yaratish, kambag'allikni qisqartirish, qishloq va shaharlarimizni obod qilish bilan chambarchas bog'liq ekanligi sotsiologik ilmiy yondashuvlar asosida asoslantirilgan.

Dissertatsiyada hozirgi vaqtda ijtimoiy ta'minot budjet va davlatning budjetdan tashqari maqsadli jamg'arma mablag'lari, ya'ni sug'urta badallari hamda homiylik mablag'lari hisobidan moliyalashtirilib borish jarayonlari odamlarni rozi qilish konteksida ochib berilgan.

O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy ta'minotning davlat ijtimoiy tizimlari tarkibiga quyidagilar kiradi.

¹⁸ Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 13 октябрдаги “Давлат пенсияларини тайинлаш ва тўлаш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида”ги Қарорига 1-илова “Давлат пенсияларини тайинлаш ва тўлаш тартиби тўғрисида”ги Низом, 150-банди.



3-rasm. O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy ta'minotning davlat ijtimoiy tizimlari tarkibi

Ijtimoiy ta'minot tizimi dunyoda ikkita modelda amalga oshiriladi. Birinchi model – kontenental yoki Bismark modeli bo'lib, fuqarolarni majburiy ijtimoiy sug'urta qilish tartibotlarini ifodalaydi. Jamiyat barcha a'zolariga daromad topishga hamda ijtimoiy ta'minotga mansublik uchun imkoniyat yaratiladi. Davlatning asosiy vazifasi aholi daromadlarni oshirish va ijtimoiy himoyalash hisoblanib, asosiy mas'uliyat ishlovchi zimmasiga yuklatiladi. Shuning uchun imtiyozlar ishlaydigan odamlarning maqomi va daromadiga qarab tayinlanishi mumkin.

Ijtimoiy ta'minotning ikkinchi modeli Atlantik yoki Beverdj modelidir. Bu modelga ko'ra, har bir fuqaro kasallanganda, keksayganda davlat tomonidan himoyalanihi e'tiborga olinadi. Davlatning asosiy vazifasi kafolatlangan ijtimoiy himoyaning minimal darajasini ta'minlash. Mas'uliyat davlat zimmasiga yuklatiladi.

JAHONDA MAVJUD PENSIYA TA'MINOTI TIZIMI MODELLARI

Bismark modeli

•Majburiy ijtimoiy pensiya sug'urtasi joriy qilingan. Jamiyat barcha a'zolariga daromad topishga ijtimoiy ta'minot uchun imkoniyat yaratiladi. Davlatning asosiy vazifasi aholi daromadlarini oshirish va ijtimoiy himoyalash. Mas'uliyat ishlovchi zimmasiga yuklatiladi.


Beveridj modeli

•Har bir fuqaro kasallanganda, keksayganda davlat tomonidan himoyalinishi kerak. Davlatning asosiy vazifasi - kafolatlangan ijtimoiy himoyaning minimal darajasini ta'minlash. Mas'uliyat davlat zimmasiga yuklatiladi.

4-rasm. Ijtimoiy ta'minot modellari.

Ijtimoiy ta'minot tizimi modellari bir-biridan farq qilib, ular mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga muayyan darajada ta'sir ko'rsatadi.


Ijtimoiy ta'minotning modellarini harakatlantiruvchi kuchga bo'lgan tamoyillari ham katta ahamiyatga egadir. Dunyo amaliyotida mamlakatlar quyidagi ijtimoiy ta'minot tamoyillariga amal qiladi:



5-rasm. Ijtimoiy ta'minot tamoyillari

Hozirgi davrda mamlakatimizda ijtimoiy ta'minotning zamonaviy tuzilishini quyidagi 7-rasmda ko'rishimiz mumkin. Bunda davlat ijtimoiy ta'minoti va nodavlat ijtimoiy ta'minoti. Davlat ijtimoiy ta'minoti kasbiy faoliyatning alohida turlari bilan shug'ullanadigan fuqarolarning moddiy va ijtimoiy holatidagi o'zgarishlarni qoplash yoki minimallashtirishga qaratilgan yoki ularning mehnatidan qat'iy nazar, davlat tomonidan yaratilgan huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy chora-tadbirlar tizimi ifoda etilgan. Nodavlat ijtimoiy ta'minot esa asosan xayriya mablag'lari hisobidan amalga oshirilgan. Ehtiyojmand fuqarolarga ko'maklashuvchi ijtimoiy institutlar: masjid, hojilar, obro'li shaxslar, tadbirkorlar hamda fuqarolar bo'lgan. Bugun ijtimoiy ta'minotning nodavlat ko'rinishlari juda

ham ko‘payib ketdi: blogerlar, rivojlangan davlatlardan ishlab qaytib kelgan migrantlar, jurnalistlar, nuroniylar, har xil telegramm guruhlar hamda boshqa internet tarmoqlari, saytlar, nodavlat jamg‘armalar orqali ehtiyojmandlarga yordam berib, ularning plastik kartalariga pul o‘tkazish orqali amalga oshirilmoqda.




6-rasm. Zamonaviy ijtimoiy ta'minot

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, O‘zbekiston Respublikasining rivojlanish tarixida ijtimoiy siyosat ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Kuchli ijtimoiy siyosat yuritilayotgan yurtimizda ijtimoiy himoyaga va yordamga muhtoj toifalarga, kam ta'minlanganlar, ko‘p bolali oilalar, nogironlar, yolg‘iz qariyalar va boshqalarga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish, ijtimoiy ta'minot olish huquqi hamda malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqlari qonun bilan kafolatlab qo‘yilgan. Mamlakatimizda bunday oqilona ijtimoiy siyosatning amalga oshirilishi natijasida aholining ijtimoiy-iqtisodiy farovonligining yuksalishi, turmush sharoitlari, salomatlik ko‘rsatkichlarining yaxshilanishi kontent-tahlil asosida asoslantirildi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi «**O‘zbekistonda ijtimoiy ta'minot tizimining sotsiologik tahlili**» mavzusiga bag‘ishlangan bo‘lib, O‘zbekistonda ijtimoiy ta'minot tizimini tahlil etishda sotsiologik tahlil hamda mazkur sohani ekspertlar tomonidan baholanish holati va imkoniyatlar tahlil etilgan.

